



## XORIJIY MAMLAKATLARNING ISHSIZ YOSHLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH BORASIDAGI TAJRIBALARI VA ULARNING YURTIMIZDA QO'LLANILISHI

**Komilova Sarvinoz**

Guliston davlat universiteti

ORCID: 0009-0004-8178-6988

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ishsiz yoshlarni ish bilan samarali bandligi ta'minlash, ularni iqtisodiy-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalari, yoshlarni tadbirkorlikka yo'naltirish va bu borada xorijiy davlatlar tajribalari, olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari tahlil qilindi. Natijada ishsiz yoshlarni bandligini ta'minlash bo'yicha xorij tajribalari o'rganilib, ularni mamlakatimiz iqtisodiyotiga joriy qilish istiqbollarni ko'rsatib berildi.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, ish bilan bandlik, raqobatbardoshlik, doimiy ish o'rinlari, salohiyat, ta'lim, aholi, tadbirkorlik, ko'nikma, iqtisodiyot.

## ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН ПО ПОВЫШЕНИЮ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ БЕЗРАБОТНОЙ МОЛОДЕЖИ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В НАШЕЙ СТРАНЕ

**Камилова Сарвиноз**

Гулистанский государственный университет

**Аннотация.** В данной статье проанализированы вопросы обеспечения эффективной занятости безработной молодежи, их экономико-социальной поддержки, ориентации молодежи на предпринимательство и опыт зарубежных стран, научно-теоретические взгляды ученых на эту тему. В результате был изучен зарубежный опыт обеспечения занятости безработной молодежи и показаны перспективы внедрения его в экономику нашей страны.

**Ключевые слова:** молодежь, занятость, конкурентоспособность, постоянные рабочие места, потенциал, образование, население, предпринимательство, навыки, экономика.

## EXPERIENCES OF FOREIGN COUNTRIES IN IMPROVING THE COMPETITIVENESS OF UNEMPLOYED YOUTH AND THEIR APPLICATION IN OUR COUNTRY

**Komilova Sarvinoz**

Gulistan State University

**Annotation.** This article analyzed the issues of effective employment of unemployed youth, their economic and social support, the orientation of young people to entrepreneurship and the experiences of foreign countries in this regard, the scientific and theoretical views of scientists. As a result, foreign experiments on employment of unemployed youth were studied, and the introduction of them into the economy of our country showed prospects.

**Keywords:** youth, employment, competitiveness, permanent jobs, capacity, education, population, entrepreneurship, skills, economy.

### **Kirish.**

Bugungi kunda iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida dunyo mamlakatlari barcha sohalarda, barqaror taraqqiyot yo'lida o'zlarining o'rinlariga ega bo'lib bormoqda. Albatta, bunda har bir davlatning tabiiy va iqtisodiy omillari bilan birga, inson omili, jumladan, yosh avlodlarni tarbiyalash, shart-sharoitlar yaratish, ularning intellektual salohiyatidan samarali foydalanish muhim.

Davlat va jamiyat boshqaruvida ham, biznesni taraqqiy ettirishda ham, umuman, barcha soha rivojida salohiyatli yoshning alohida o'rne bor. Sababi, ular jamiyat uchun "yangi qon" vazifasini o'taydi. Yangidan-yangi tashabbus-g'oyalarni ilgari surish, zamonaviy ish yuritish uslublarini joriy qilishda ana shu qatlam yigit - qizlarning nuqtai nazari va sa'y-harakatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Dunyo miqyosida 1,8 milliard yosh avlod vakillari bor. Jumladan, O'zbekiston aholisining deyarli teng yarmidan ko'prog'ini yoshlar tashkil etadi (Nabiyev, 2020).

Yoshlar har qanday jamiyatning ajralmas qismidir va raqamlashtirish davrida avvalambor uning muammolari birinchilardan bo'lib yuzaga chiqadi. Insoniyatning global muammolari, globallashuvning real jarayonlari va shakllarini aniqlashda, birinchi navbatda, yoshlar parametri turadi. Aynan yoshlar iqtisodiy va ijtimoiy tomondan aziyat chekadilar va mojarolar markaziga borib qolishlari mumkin. Avvalo, yoshlar yangilanib borayotgan dunyoviy etikani puxta egallab, uning asosida yashashni o'rganishlari kerak. Mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlarimiz tinchlik madaniyatini anglashlari va tushunib yetishlari muhimdir.

O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish vazifalarini hal etishning asosida yangi bilimlar va texnologiyalarni yaratish, barcha ishlab chiqarish jarayonlarini intellektuallashtirish yotadi. Bu yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ulardan foydalanish muammosini hal qilish bilan bog'liq. Amaliyotdan ko'rib turganimizdek, bugungi kunda ishsizlik muammosi nafaqat oliy, balki o'rta maxsus ta'lim muassasalarining bitiruvchilari o'rtasida ham keskin turibdi. Shu bilan birga hatto yaxshi bilim va malakaga ega bo'lish hamma vaqt ham yosh mutaxassislarning mehnat bozorida talab etilishini kafolatlamaydi. Bunday vaziyat O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish vazifalari va ushbu vazifalarni yoshlarning intellektual salohiyatini amalga oshirish orqali hal etish o'rtasida ziddiyatlar yuzaga kelayotganligidan dalolat berib turibdi. Buning sabablaridan biri – mehnat bozorida yosh mutaxassislar raqobatbardoshligining past darajasidir.

Jahon miqyosidagi yoshlar sonining o'sishi kutilayotgan bo'lsa-da, yoshlar uchun, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan turg'un qishloq joylarida yashovchilar uchun ish va tadbirkorlik imkoniyatlari cheklanganib qolmoqda.

Qishloq yoshlarining aksariyati norasmiy iqtisodiyotda oilaviy yordamchi, yordamchi fermer, kasanachilik yoki past malakali ishchi sifatida ishlaydi. Ular kam ish haqi olishga, odatiy yoki mavsumiy ishlarda ishlashga moyil bo'lib, ko'pchilik shaharlarga ko'chib o'tishga majbur qiladigan xavfli, ko'pincha ekspluatatsiya qilinadigan mehnat sharoitlariga duch kelishadi. Yoshlarni qishloq xo'jaligiga qayta jalb qilish, tirikchilik qilish uchun duch keladigan ko'plab to'siqlarni bartaraf etishni talab qiladi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Beglova (2010) yoshlar ishsizligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va oqibatlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bergan. Abraamova, Verxapovskayalar (2006) ish beruvchilarning yoshlarga qo'yayotgan talablari va oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashning bugungi holati hamda yoshlarning kasbiy qiziqishlarini sosiologik so'rovlar o'tkazish yo'li bilan tahlil qilganlar.

Popova (2011) yoshlar bandligidagi tarkibiy nomutanosibliklarning yuzaga kelish sabablari va uni bartaraf etish yo'llari haqida mualliflik nuqtai nazarini ishlab chiqqan bo'lsa, Zerchaninovaning (2011) ishlarida ta'lim muassasalari tomonidan mehnat bozorida talabga mos yosh kadrlar tayyorlash masalalari o'rganilgan. Rodionova (2011) tomonidan yuqori

darajada industrlashish davrida xodimlar boshqaruviga innovatsion yondashuv tamoyillari tadqiq etilgan.

Rossiyalik iqtisodchi olim Odegovning (2015) mehnat bozorida yoshlar raqobatbardoshligini oshirish masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan bo'lib, u raqobatbardoshlik mehnat resurslari sifati, shaxsning ijodiy imkoniyatlari, ish bilan bandlik va ish kuni davomiyligi kafolatlanganligi, daromad miqdori bilan belgilanishini ta'kidlab o'tgan.

Tak'ldash joizki, bugungi kunga qadar mamlakatimiz olimlari tomonidan mazkur yo'nalishda juda ko'p tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, professorlar Xolmo'minov va Xomitov (2020) o'zlarining tadqiqotlarida yoshlarni ish bilan ta'minlashning mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan samarali tashkiliy mexanizmlarining ta'siri aniq sosiologik baholangan. Uning asosida yoshlarni ish bilan ta'minlashning zamonaviy turlari va vositalarini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ishsiz yoshlarni kasbga yo'naltirish, tayyorlash va qayta tayyorlashning muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ochib berilgan.

Yana bir tadqiqotchi Mirzakarimova (2017) tomonidan ishga joylashtirish, yoshlar bandligi – bu davlat ahamiyatiga molik masala ekanligi, chunki aynan yoshlar mamlakat kadrlar salohiyatini tashkil qilishi, yoshlar bandligini ta'minlash davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining dolzarb va uzoq muddatli vazifasi ekanligi alohida ta'kidlangan. Bugungi kunda inson salohiyatining raqobatbardoshligini oshirish ko'p jihatdan yoshlar mehnatidan foydalanish sohasidagi milliy strategiyaga bog'liq ekanligi, mehnat bozoridagi yoshlar ahvolini baholash zarurati yoshlar – bu mamlakat kelajagi ekanligi va butun jamiyatning istiqboldagi rivojlanishi ular faoliyatining boshlang'ich sharoitlariga bog'liqligi bilan belgilanishi, bugungi yoshlar ko'p jihatdan jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsata olishi, shu bilan bir qatorda, yoshlar ishga joylashishda katta qiyinchiliklarga uchrayotgan ijtimoiy nochor toifalardan biri hisoblanishiga alohida e'tibor qaratilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ma'lumotlarni guruhlash, qiyosiy tahlil, analiz va tizimli tahlil, taqqoslash hamda analitik baholash usullaridan unumli foydalanildi. Bundan tashqari, monografik kuzatuv va uning natijalari tahlili o'rganilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Ishga joylashtirish, yoshlar bandligi – bu davlat ahamiyatiga molik masala, chunki aynan yoshlar mamlakat kadrlar salohiyatini tashkil qiladi (Mirzakarimova, 2017). Yoshlar bandligini ta'minlash davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining dolzarb va uzoq muddatli vazifasi hisoblanadi. Bugungi kunda inson salohiyatining raqobatbardoshligini oshirish ko'p jihatdan yoshlar mehnatidan foydalanish sohasidagi milliy strategiyaga bog'liqdir.

Mehnat bozoridagi yoshlar ahvolini baholash zarurati yoshlar mamlakat kelajagi ekanligi va butun jamiyatning istiqboldagi rivojlanishi ular faoliyatining boshlang'ich sharoitlariga bog'liqligi bilan belgilanadi. Bugungi yoshlar ko'p jihatdan jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi.

Bozor munosabatlari xususiyatlariga qarab, ko'plab mamlakatlarda davlat ish bilan bandlik xizmatining funksiyalari va faollik darajasi belgilab beriladi.

Masalan, Shvetsiya, Kanada, Germaniya, Yaponiya va boshqa bir qator mamlakatlarda ish bilan bandlik sohasidagi siyosatni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish, ishchi kuchiga bo'lgan talab va uning taklifi o'rtasidagi regulyator roli ushbu xizmatga yuklatilgan. Shu bilan bir paytda, Buyuk Britaniya, Avstraliya va AQShda davlat ish bilan bandlik xizmatining roli u qadar faol emas, chunki bu mamlakatda ishga joylashtirish bo'yicha xususiy pullik byurolar ham faoliyat ko'rsatadi, ish qidirish bo'yicha javobgarlik ishsizlarning o'ziga yuklatiladi (Zikriyayev, 2018).

Xorijiy mamlakatlar mehnat bozorida faol dasturlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilgan, ya'ni resurslarning sezilarli qismi faol dasturlar foydasiga (AQSh va Kanadada YaIM

0,4%idan Shvesiyada 2%gacha) (Zikriyayev, 2018) qayta taqsimlanadi va bu bir qator sabablar bilan izohlanadi.

Birinchi, faol pozitsiyadagi ishni yo'qotganlarni qo'llab-quvvatlashdan ko'ra har bir fuqaroning ish joyini izlashga qaratilgan faolligini rag'batlantiradi, bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy to'lovlar hisobiga daromadlarni qo'llab-quvvatlashga bog'liqlikni qisqartiradi (o'z navbatida, davlat byudjeti xarajatlarini ham kamaytiradi), ishsizlarning og'ir psixologik holati bilan bog'liq jamiyatdagi keskinlikni pasaytiradi (hatto ular yetarli darajada yuqori foyda olishi shartlarida ham).

Ikkinchi, faol pozitsiya mehnat unumdorligini oshiradi, xususan, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishga xizmat qiladi, shu tariqa mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi, chunki uning asosiy vazifasi uning ish samarasi eng yuqori bo'ladigan, ya'ni uning alqiy va jismoniy qobiliyatlariga optimal ravishda mos keladigan ish joyini maksimal darajada tez topishidan iborat.

Bevosita ishsiz yoshlarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ishlarga keladigan bo'lsak, bu jarayon bir nechta bosqichni qamrab oladi. Ularning orasida – ish bilan bandlarning kasbiy-malakaviy tarkibi prognozlarini tayyorlash ham mavjud bo'lib, bu ta'lim muassasalariga va ularda tahsil oladigan talabalarga u yoki bu kasbda bitiruvchidan talab qilinadigan bilim, malaka va ko'nikmalarni ishlab chiqqan holda muayyan ishchi kuchiga kutilayotgan ehtiyojga asosiy e'tiborni qaratgani holda tayyorgarlikni ta'minlash imkonini beradi

Shvetsiya modeli quyidagicha. Ishsizlik darajasining maksimal darajada pasayishiga olib keladigan bandlik sohasidagi faol davlat siyosatini olib borish ko'zda tutiladi. Bu model ishsizlik darajasini minimal qilishga qaratilgandir. Ushbu modelning asosiy yo'nalishi ishsizlikning oldini olishdir. To'liq bandlikka quyidagilar erishishni taklif qiladi (Volkov, 2015):

- kam daromadli korxonalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosatni cheklash;
- ish haqi birdamlik siyosatini amalga oshirish. Teng ish uchun teng ish haqi;
- raqobatbardosh bo'lmagan ishchilarni qo'llab-quvvatlash uchun faol mehnat bozori siyosati;
- iqtisodiyot tarmoqlarida bandlikni qo'llab-quvvatlashda kam ishlab ko'p daromad qilish va ijtimoiy muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga Yapon modelini ko'rib chiqsak. Yapon modelida mehnat munosabatlari 55-60 yoshgacha bo'lgan "umrbod bandlik" tamoyiliga asoslanadi. Daromad va ijtimoiy nafaqalar miqdori ishlagan yillar soniga bog'liq. Kompaniya ichida kasbiy rivojlanish, rejaga muvofiq yangi ish joyiga o'tish, bu mehnatga ijodiy munosabat, vatanparvarlik, fidoyilik va mas'uliyatni anglatadi. Agar kerak bo'lsa, ishlab chiqarishning qisqarishi xodimlarning ishdan bo'shatilishi bilan emas, balki ish kunining davomiyligini qisqartirish yoki ba'zi xodimlarni ular bilan kelishilgan holda boshqa korxonalarga o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Jahon iqtisodiy inqirozi sharoitida XMT yoshlarni bandlikka ko'maklashish masalasini ishtirokchi mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy strategiyasining markaziga qo'yishga chaqiradi. XMT ularni ishsizlikning keyingi o'sishini oldini olish uchun makroiqtisodiy vositalaridan foydalanish uchun javobgar qiladi.

XMTning bandlik sohasidagi maqsadlari (Ermolaeva, 2015):

- hamkorlarga mehnat bozori va iqtisodiyot holatini tahlil qilish uchun zarur vositalar bilan ta'minlash, bandlikni rivojlantirishning samarali siyosatini ishlab chiqish;
- kichik korxonalarini rivojlantirish orqali yoshlar bandligini oshirish;
- ayollarga ish topishda ko'maklashish;
- markazlashtirilgan rejalashtirish iqtisodiyotidan, ayniqsa mehnat bozori, inson resurslarini rivojlantirish masalalarida o'tish bo'yicha maslahatlar berish;
- yoshlar, nogironlar, muhojirlar va mahalliy aholi kabi ishchilar toifalari uchun ularni munosib ish bilan ta'minlash maqsadida maqsadli dasturlarni qabul qilish yoki kengaytirish.

Barcha rivojlangan mamlakatlarda yoshlarning mehnat bozoriga chiqquniga qadar raqobatbardosh ishchi kuchini shakllantirish bo'yicha ko'rsatilgan chora-tadbirlar bilan bir

qatorida ta'lim yordamida ishsiz yoshlarning ishchi kuchi sifatini oshirishga ham muhim ahamiyat beriladi, buning uchun katta hajmda mablag'lar ajratiladi. Biroq so'nggi paytlarda mehnat bozoriga zarur muayyan kasbga o'qitishgina emas, belgilangan hajmda nazariy bilimlarni albatta o'zlashtirgan holda yanada kengroq kasbiy, ijtimoiy va kommunikativ qobiliyatlar shakllantirishga ehtiyoj tobora ko'proq his qilinmoqda.

Mehnat bozorida shiddatli o'zgarishlar ro'y berayotgan sharoitlarda faqat shunday tayyorgarligina yoshlarni ishga joylashtirish imkoniyatini, shuningdek, ularning harakatchanligini oshirishni ta'minlashga qodir. AQSh va Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida bilimlar iqtisodiyotiga alohida e'tibor qaratilgan. Bilimlarga asoslangan jamiyat yuqori texnologiyalarga va yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirishga investitsiyalarning o'sishi va yuqori malakali ishchi kuchi mavjudligi bilan tavsiflanadi, buning oqibatida samaradorlik darajasi yuqori bo'lgan iqtisodiyot vujudga keladi. Hozirgi paytda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) mamlakatlarida YaIMning 50 foizi bilimlar tomonidan yaratiladi (The World Bank, 2012).

Rivojlangan mamlakatlarda ishga joylashtirish bo'yicha agentliklar ham faoliyat ko'rsatib, ularning asosiy funksiyasi ishchi kuchi sotuvchilari va xaridorlari uchrashuvini ta'minlash hisoblanadi. Bo'sh ish o'rinlariga ega bo'lgan tadbirkor ishning mohiyati, zarur malaka va boshqalarni ko'rsatgan holda agentlikka talabnoma jo'natishi mumkin. Ishsiz yoki ish o'rnini almashtirish istagida bo'lgan yoshlar bu haqida agentlikdan so'rash huquqiga ega, buning uchun u mos keluvchi qayd qilish varaqasini to'ldirishi lozim.

Agentlik mutaxassislari bo'sh ish o'rinlari va qayd qilish varaqalarining bir-biriga muvofiqligi ta'minlangani holda dastlabki tanlovni amalga oshiradi. Deyarli barcha davlatlarda ishga joylashtirish bo'yicha xizmat xodimlar uchun ham, tadbirkorlar uchun ham bepul hisoblanadi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat ish bilan bandlik xizmati mehnat bozoridagi jarayonlarni tartibga solish tizimining markaziy bo'g'ini hisoblanadi. U ishchi kuchini kasbga tayyorlash va undan foydalanishni doimiy ravishda maqsadli yo'naltirilgan tarzda tartibga solish uchun tashkil qilinadigan maxsus organlar tuzilmasini ifodalaydi. Davlat xizmatining funksiyalari va faollik darajasi ko'plab mamlakatlarda bozor munosabatlari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilangan.

Buyuk Britaniya, Avstraliya va AQShda davlat ish bilan bandlik xizmatining roli u qadar yuqori emas: bu yerda ishga joylashtirish bo'yicha pullik byurolar mavjud bo'lishiga yo'l qo'yilgan, ish izlash uchun javobgarlik esa bevosita ishsizlarning o'ziga yuklatilgan.

Fikrimizcha bandlikka ko'maklashish tuman (shahar) markazlariga mahalliy mehnat bozorini o'rganish, uning rivojlanish yo'nalishlari va tendensiyalarini aniqlash va shu asosda salbiy jarayonlar rivojlanishining oldini olish yoki yumshatish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish bilan bog'liq funksiyalarning qaytarish lozim. Chunki mamlakatning har bir hududi o'ziga xos xususiyatlarga ega, shu bilan birga mehnat bozoridagi vaziyat rivojlanishining barcha jihatlarini amalda oldindan ko'rib bo'lmaydi.

### **Xulosa va takliflar.**

Yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori kasb-hunarlariga tayyorlashni tizimli yo'lga qo'yish, ularning munosib ish topishiga ko'maklashish orqali ko'plab ijtimoiy va iqtisodiy muammolar hal bo'ladi.

Buning uchun nafaqat davlat ta'lim muassasalari, balki mingdan ziyod nodavlat kasb-hunar ta'limi markazlarini ham jalb qilish zarur. Yoshlarning samarali ish bilan bandligini ta'minlash va ular orasida ishsizlik darajasini kamaytirish mexanizmi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarning eng asosiylaridan hisoblanadi. Uning samarali faoliyat olib borishi quyidagi chora-tadbirlarni bajarishni talab etadi:

– hududiy yoshlar mehnat bozoridagi o'ziga xos, xususiy muammolarni yechishda mahalliy boshqaruv organlari rolini kuchaytirish;



– yoshlar o'rtasida yuqori ishsizlik darajasi kuzatilgan hududlarda davlat byudjeti hamda byudjetdan tashqari ijtimoiy fondlar hisobidan hududda ijtimoiy iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish;

– monoiqtisodiy tuzulmaga ega aholi punktlari, shahar va sanoati rivojlangan hududlarda yoshlarning ommaviy ishsizligining salbiy asoratlarini bartaraf etish;

– yosh xodimlarni ommaviy ishdan bo'shatilishlarini oldini olish, yoshlar uchun mavjud ish o'rinlarini saqlab qolish va yangilarini yaratish, yangi progressiv ishlab chiqarish tuzilmalari uchun yosh kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni istiqbolli rejalashtirish;

– iqtisodiy jihatdan nochor korxonalar yosh ishchilarining mehnat huquqlarini ta'minlash, ish joyini yo'qotgan yoshlarni samarali qo'llab-quvvatlash;

– malaka oshirish hamda ijtimoiy himoyalash maqsadida kerakli bo'lgan infratuzilmaga ega yirik "yoshlar qurilishlari"ni tashkil etish;

– yoshlar va ayollar uchun barqaror yangi ish o'rinlari yaratishni rag'batlantirish shular jumlasidandir.

### **Adabiyotlar / Лумепатрыа / Reference:**

Mirzakarimova M. (2017). Ta'lim xizmatlari bozori va mehnat bozorini muvofiqlashtirish yoshlar bandligi omili sifatida // Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral.

Nabiev Olimjon Abdusalomovich (2020) Yoshlarning beqaror ish bilan bandligiga ta'sir etuvchi omillar –T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", – 114-117 b.

The World Bank (2012) Constructing Knowledge Societies Mew Challenes for Tertiary Education. Wash., DC: The World Bank.

Xolmo'minov Sh.R., Xomitov K.Z. (2020) Qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlashning samarali tashkiliy mexanizmlari ta'sirini aniq sotsiologik baholash // iqtisod va moliya jurnali. 1 son, 86-95 betlar

Youth employment. [www.fao.org/rural-employment/work-areas/youthemployment/en/](http://www.fao.org/rural-employment/work-areas/youthemployment/en/)

Zikriyev Zokir Mamirovich (2018) Xorijiy mamlakatlarning ishsiz yoshlar raqobatbardoshligini oshirish borasidagi tajribalari "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust.

Абрамова Е.М., Верхановская Ю.Б. (2006) Работадатели и выпускники вузов на рынке труда: взаимные ожидания// социологические исследования. - №4. –с.1-22

Беглова Е.И. (2010) Безработица молодёжи: первоочередная проблема современного рынка труда.// Экономические науки. №11, с. 172-176.

Волков А.М. (2015) Шведская модель: сохранилась она или нет? Тезисы доклада к заседанию Ученого совета ИМЭМО РАН 25 февраля.

Ермолаева С.Г. (2015) Рынок труда: учебное пособие / С.Г. Ермолаева.— Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, -108 с

Зерчанинова Т.Е. (2011) Выпускники профессиональных образовательных учреждений и рынок труда. URL:<http://chinovmir.vapa.ru/modern/>.

Одегов Ю.Г. (2015) Экономика труда: учебник – Москва : Альфа-Пресс.

Попова Т.Н. (2011) Структурный дисбаланс системы занятости в регионе // Современная экономика: проблемы, тенденции, перспективы. №5.

Родионова Е.В. (2011) Инновационный подход к управлению персоналом.// Современная экономика: проблемы, тенденции, перспективы. №5